

## "Zig'ir" mahalla fuqarolar yig'inida 3 kilometr masofadagi yo'llar asfaltlanmoqda



Uchko'prik tumanida qishloq va mahallalarda infratuzilma bilan bog'liq eng dolzarb masalalarni tizimli hal etish, shu asosda aholi uchun munosib turmush sharoitlarini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

---

Bu borada Prezidentimizning 2022 yil 25 oktyabrdagi qabul qilingan "2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori muhim ahamiyat kasb etmoqda. "Zig'ir" mahalla fuqarolar yig'inida yo'l infratuzilmasi bilan bog'liq mavjud muammolarni bartaraf etish va aholiga q o'laylik yaratish maqsadida bosqichma-bosqich asfaltlash ishlari amalga oshirilmoqda.



Ayni vaqtda mahalla hududida 3 ming metr masofadagi ichki yo'llarni asfaltlash ishlari davom etmoqda.

**Avtomobil yo'llari qo'mitasi**

**Axborot xizmat**